

## **YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MADANIY MEROSNING O'RNI**

*Burxanov Taxir Maxammatjonovich*

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti,*

*p.f.f.d.(PhD), dotsent*

Ma'lumki, insonparvarlik g'oyalar sadoqat, demokratiya, adolat, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, barcha xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, farovonlik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

“Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi” [1;279] degan ta'rif berilgan. Demak, insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina umuminsoniy qadriyatlarning yaratuvchisi va saqlab turuvchisidir.

O'z mamlakatning tinchligi, osoyishtaligi va erkinligini ta'minlash, uni asrash hamda avaylash shu yurt fuqarolarining muqaddas burchidir. Qalbida vatanparvalik hissi jo'shqin uradigan insongina buni tasdiqlaydi. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish hamda vatanga bo'lgan muxabbatni takomillashtirishda insoniyat tarixining bir-biriga bog'liqligi va undagi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanish qonunlariga ko'ra rivojlanish har bir yangi tarixiy bosqichda o'ziga xos, yangi tamoyillar va qonuniyatlarga asoslanadi ya'ni, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimda barqarorlik va ichki tartib, muvozanatni saqlash, jamiyatning bir butun yaxlit tizim sifatida doimiy takomillashib borishini ta'minlash, ichki va tashqi xavfsizlikni himoya qilish va h.k. amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, G'arb tashqi dunyoni (tabiatni) nazariy jihatdan o'zlashtirishda muhim ko'rsatkichlarga va natijalarga erishgan bo'lsa,

Sharq ham ichki dunyoni (insonni) bilish yo'lida qat'iy ta'sir qoldiruvchi yutuqlarga erishdi. Shu munosabat bilan akademik N.N.Konrad bu haqida shunday yozadi: "Har bir avlod uchun shuni yodda tutish zarurki, Sharqning inson va jamiyat haqidagi ilmining barcha sohalaridagi nazariy fikrini hisobga olmoq lozim, negaki, aynan ana shu sohalar g'oyat mufassal va keng miqyosida Sharqda ishlab chiqilgan" [2;27] Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dinining o'rni beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev bu haqda shunday deydi: "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. Biz islom dinidan zo'ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan qimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz" [3;30] Yevropa markazchilik qarashlarini tanqid ostiga olgan, klassiklardan biri bo'lgan K.Yaspers Sharq falsafasi va madaniyatiga murojaat qilish zarurligini quyidagicha izohlaydi: "Osiyoda bizga yetishmaydigan narsa bor va u biz uchun jiddiy ahamiyatga ega! U yerda bizga qaratilgan savollar yangramoqdaki, ular bizning qalblarimiz tubida ko'milgandirlar. Biz ijod qilgan barcha narsa uchun, biz nimani qila olgan bo'lsak, biz nimalarga erishgan bo'lsak, buning uchun biz muayyan baho to'ladik. Biz hali inson tabiatining kamoloti yo'lida emasmiz. Osiyo biz uchun zaruriy qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi" [4;69]. Ma'lumki, Amir Temur faoliyati va uning shaxsi uzoq yillar davomida salbiy nuqtai nazardan baholangan. Faqat mustaqillikdan keyingina uning faoliyatiga xolisona munosabat bildirildi, shuningdek, adolatparvar, erkparvar, xalqparvar buyuk sarkarda sifatida ilm, fan, san'at va madaniyat rivojlanishiga sharoit yaratib berganligi va homiyliklari to'g'risida ko'plab ilmiy,

ommabop, badiiy asarlar yaratildi. Qisqa davr mobaynida xalqning azaliy udumlari, asrlar sinovidan o'tgan milliy an'analari, tarixiy madaniy merosi qayta tiklandi. Xalqimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichini milliy tiklanish va madaniy yangilanish borasidagi vorislik huquqlarini qo'lga kiritish asnosida amalga oshirildi. Milliy qadriyatlarni milliy g'urur va iftixorni shakllantirish ishlariga xizmat qildirish, kelajakka qat'iy ishonch bilan qarash omiliga aylantirish jarayonlari faollashdi. Ayni paytda o'zlikni anglash, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda tarixiy madaniy merosning o'rni ham nihoyatda katta. Tarixda yuz foiz ijobiy, yoki yuz foiz salbiy voqea ro'y bermaydi. Har bir voqea, hodisa, har bir shaxs faoliyatining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Mustaqillik sharofati bilan diniy-falsafiy merosimizning tarixiy ildizlari uch ming yillarga borib yetishini anglash va bu haqda baralla gapirish imkoniga ega bo'ldik. Buning yorqin misolini muqaddas tarixiy yodgorlik, "Avesto"ni Amudaryo sohillarida, Xorazm o'lkasida vujudga kelganini e'tirof etilganida ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, vatanimiz oldida turgan hozirgi vazifalar va ularni bajarish imkoniyatlarini bilish, bu borada jonbozlik, fidoyilik namunalarini ko'rsatish ham kerak. Xususan, Xalq og'zaki ijodi namunalaridan hisoblanmish "To'maris", "Shiroq" kabi afsonalarda vatanparvarlik, millat sha'ni, ornomusi, ozodlik, erkinlik kabi ulug' sifatlarning madh etilishi ham o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining uzoq o'tmishga borib taqalganidan darakdir. Hatto buyuk tarixchi Gerodot o'zining "Tarix"ida baqtriyaliklarni 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marotaba nomlab, ularning moddiy madaniyati, an'analari, dini va tarixi haqida ma'lumot qoldirgan" [5;154]

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, tarixiy taraqqiyotning buzilishi hayot haqiqatining buzilishiga olib kelsa, hayot haqiqatining buzilishi yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiladi. Odamlarda, xususan yoshlarda ilg'or dunyoqarash, izchil e'tiqod, mustahkam irodaning shakllanishi ko'p tomondan ular ongining yuksak va haqqoniyligiga asoslanadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda madaniy meros va qadriyatlar tamoyillari asosida mustahkam qaror topgan osuda hayot

va do'stona muhit, xavfsizligimiz va barqarorligimizni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, ularda milliy o'zlikni anglash va albatta vatanparvar tuyg'usining shakllanishi yurt taraqqiyotining poydevori bo'lishi tabiiydir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 1998.- 279-b.
2. Конрад Н.И. Запад и восток. – М.: 1972.- 27-б
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2018.- 30-b.
4. Ясперс Карл. Смысл и назначение истории. Мыслители XX века. – М.: Республика, 1994.- 69-б
5. Геродот. “Тарих”, том 1, 2.- 154-b.